

**“YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI SHAROITIDA
XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TARMOQLARINI
RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION VA IQTISODIY
MEXANIZMLARI”**

Xalikova Lola Nazarovna

*Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti professori i.f.d.*

Eshqo‘ziyev Adhambek Mamadali o‘g‘li

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

Samarqand iqtisodiyot va servis

instituti iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda innovatsion va iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, 2022–2025 yillar bo‘yicha statistik ma’lumotlar asosida xizmat ko‘rsatish sohalari hajmining o‘shish dinamikasi baholangan hamda ushbu sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati aniqlangan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish sohasi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy mexanizmlar, xizmatlar bozori, iqtisodiy o‘shish, xizmatlar sektori, investitsiya faoliyati, iqtisodiy islohotlar.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются теоретические основы, инновационные и экономические механизмы развития сектора услуг в контексте новой стратегии развития Узбекистана. В ходе исследования научно проанализирована роль сектора услуг в национальной экономике, тенденции его развития и факторы, влияющие на экономическую эффективность. Также на основе статистических данных за 2022–2025 годы оценена динамика роста объёма услуг и определена значимость этого сектора для экономического развития.

Ключевые слова: Сектор услуг, Новая стратегия развития Узбекистана, инновационное развитие, экономические механизмы, рынок услуг, экономический рост, сектор услуг, инвестиционная деятельность, экономические реформы.

Abstract: This scientific article examines the theoretical foundations, innovative and economic mechanisms for the development of service sectors in the

context of the New Uzbekistan Development Strategy. In the course of the research, the role of the service sector in the national economy, its development trends and factors affecting economic efficiency were scientifically analyzed. Also, based on statistical data for 2022–2025, the dynamics of growth in the volume of service sectors were assessed and the importance of this sector in economic development was determined.

Keywords: Service sector, New Uzbekistan Development Strategy, innovative development, economic mechanisms, services market, economic growth, services sector, investment activity, economic reforms.

Kirish

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasi eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sektori nafaqat yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini shakllantiradi, balki iqtisodiy o‘shish, bandlikni ta‘minlash, aholi farovonligini oshirish hamda innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv, raqamli texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bois xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini samarali rivojlantirish, ularni innovatsion asosda modernizatsiya qilish hamda iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni”¹ taraqqiyot strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, zamonaviy xizmatlar sektorini kengaytirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan kompleks islohotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu strategiya doirasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda raqamli iqtisodiyot elementlarini keng joriy etish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasining samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan innovatsion yondashuvlar va zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarning mavjudligiga bog‘liq. Innovatsiyalar xizmatlar sifatini oshirish, yangi xizmat turlarini yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy mexanizmlar esa

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон

xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, investitsiyalarni jalb qilish, resurslardan samarali foydalanish va bozor infratuzilmasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning innovatsion va iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida raqamli texnologiyalar, elektron xizmatlar, axborot-kommunikatsiya tizimlari va innovatsion boshqaruv usullarining keng joriy etilishi ushbu sohaning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda. Biroq xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish darajasi hududlar kesimida turlicha bo‘lib, ayrim hududlarda xizmatlar infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, innovatsion faoliyatning sustligi hamda iqtisodiy mexanizmlarning to‘liq ishlamasligi kuzatilmoqda. Bu esa xizmatlar sektorini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, aholining turmush sifatini yaxshilash hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning innovatsion va iqtisodiy mexanizmlarini chuqur o‘rganish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyot sharhi

Xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotdagi o‘rni va uning rivojlanish qonuniyatlari iqtisodiy nazariyada uzoq vaqt davomida tadqiq etib kelinmoqda. Klassik iqtisodiy maktab vakillari xizmatlar sektorining iqtisodiy tizimdagi rolini tahlil qilishga dastlabki ilmiy asos yaratganlar. Jumladan, XVIII asr iqtisodchisi Adam Smit o‘zining mashhur “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” asarida xizmatlar faoliyati haqida fikr yuritib, “ba’zi xizmatlar moddiy mahsulot yaratmasada, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega”² deb ta’kidlagan. Bu qarash xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini anglashga dastlabki nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Keyinchalik xizmatlar sektorining rivojlanishi va iqtisodiyot tarkibidagi o‘rni postindustrial jamiyat nazariyasi doirasida chuqur o‘rganildi. Xususan, fransuz iqtisodchisi Jean Fourastie iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, “jamiyat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiyotning asosiy og‘irlik markazi sanoatdan xizmat

² Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. – 1096 p.

ko'rsatish sektoriga ko'chadi"³ degan g'oyani ilgari surgan. Ushbu yondashuv xizmatlar sektorining iqtisodiy o'sishdagi strategik rolini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Amerikalik sotsiolog va iqtisodchi Daniel Bell o'zining "Postindustrial jamiyatning kelishi" asarida xizmatlar iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollarini tahlil qilib, "postindustrial jamiyatda bilim, axborot va xizmatlar iqtisodiy rivojlanishning asosiy resurslariga aylanadi"⁴ deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori innovatsiyalar va ilmiy-texnologik taraqqiyot bilan bevosita bog'liq bo'lib, iqtisodiy tizimning yetakchi tarmog'iga aylanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda innovatsiyalar muhim rol o'ynashi haqidagi g'oya mashhur iqtisodchi Joseph Schumpeter tomonidan ham asoslab berilgan. U iqtisodiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqib, "innovatsiya iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir"⁵ deb ta'kidlaydi. Schumpeterga ko'ra, yangi texnologiyalar, yangi xizmat turlari va boshqaruv usullarining joriy etilishi xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini oshiradi va bozor raqobatini kuchaytiradi.

Xizmatlar sektorida raqobat ustunligini shakllantirish masalalari amerikalik iqtisodchi Michael Porter tomonidan chuqur o'rganilgan. U o'zining "Millatlarning raqobat ustunligi" asarida "mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligi innovatsiyalar, samarali boshqaruv va rivojlangan xizmatlar sektori bilan chambarchas bog'liq"⁶ ekanligini ta'kidlaydi. Porterning fikricha, xizmatlar infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham yuqori bo'ladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish masalalarini keng tadqiq etib kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodchi olim A. Vahobov xizmatlar sektorining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini tahlil qilib, "xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi"⁷ deb ta'kidlagan. Shuningdek, S. G'ulomov xizmatlar sektorini raqamli iqtisodiyot bilan bog'lab, "zamonaviy iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi axborot texnologiyalari va innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq"⁸ ekanligini qayd etadi.

Mahalliy iqtisodchi olim B. Xodiyev ham xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy mexanizmlarini o'rganib, "xizmatlar sektorining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va barqaror o'sishining muhim omillaridan biridir"⁹ degan fikrni ilgari surgan. Uning tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda

³ Fourastié J. Le Grand Espoir du XXe siècle. – Paris: Presses Universitaires de France, 1949. – 320 p.

⁴ Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books, 1973. – 507 p.

⁵ Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.

⁶ Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.

⁷ Vahobov A. V., Jo'rayev T. T., Xudoyberdiyev Z. Sh. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 512 b.

⁸ G'ulomov S. S. Axborotlashgan iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 356 b.

⁹ Xodiyev B. Y. O'zbekiston iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 420 b.

investitsiyalar, innovatsiyalar va samarali iqtisodiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Yuqoridagi adabiyotlar sharhi shuni ko’rsatadiki, xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish masalasi iqtisodiy nazariyada keng o’rganilgan bo’lsa-da, zamonaviy sharoitda, xususan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning innovatsion va iqtisodiy mexanizmlarini kompleks o’rganish dolzarb ilmiy masala bo’lib qolmoqda. Mazkur masalani chuqur tahlil qilish xizmatlar sektorining samaradorligini oshirish, uning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuv, monografik kuzatish, statistik abstrakt va mantiq fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usulidan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo’lib, so’nggi yillarda uning rivojlanish sur’atlari sezilarli darajada oshib bormoqda. 2022–2025 yillar oralig’ida xizmat ko’rsatish sohalari hajmi bo’yicha statistik ma’lumotlar tahlili ushbu tarmoqlarda barqaror o’sish tendensiyasi mavjudligini ko’rsatadi. Bu jarayon mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholi daromadlari oshishi bilan chambarchas bog’liqdir.

1-Jadval.

O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatish sohalari hajmining 2022–2025 yillardagi o’sish dinamikasi

Klassifikator	2022	2023	2024	2025	O’zgarish(2022 va 2025-yillar o’rtasida)
Moliya xizmatlari hajmi (yillik)	81372,3	107978,8	135832,5	171867	111,2 %
Transport xizmatlari hajmi (yillik)	92277,2	118275,5	151825	188270,8	104,0 %
Ijara xizmatlari hajmi (yillik)	6774,8	7780,4	9880,3	12797,6	88,9 %
Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi (yillik)	27938	39734,2	56865,2	79485,5	184,5 %

Avtotransport xizmatlari hajmi (yillik)	48058,6	57906,7	73439	95853,8	99,5 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (yillik)	20572,3	25831,2	32110,5	39626,7	92,6 %
Savdo xizmatlari hajmi (yillik)	103488,3	128781,8	154995,1	186957,3	80,7 %
Boshqa xizmatlar hajmi (yillik)	21364,4	30507,8	39965,7	51150,3	139,4 %

Manba: Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy saytidan olingan, <https://www.stat.uz>¹⁰

Tahlil natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohalari ichida eng yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqa xizmatlarida kuzatilmoqda. Ushbu tarmoq hajmi 2022-yildagi 27 938 mlrd so'mdan 2025-yilda 79 485,5 mlrd so'mga yetib, 184,5 foizga oshgan. Bunday yuqori o'sish sur'atlari mamlakatda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi, elektron xizmatlar va raqamli platformalarning keng joriy etilishi bilan izohlanadi. Axborot texnologiyalari sohasining rivojlanishi boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ham samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalari tarkibida muhim o'rin egallagan moliya xizmatlari hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Mazkur soha hajmi 2022-yildagi 81 372,3 mlrd so'mdan 2025-yilda 171 867 mlrd so'mga yetib, 111,2 foiz o'sishni tashkil etgan. Bu o'sish bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, kreditlash hajmining kengayishi, raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi hamda moliyaviy xizmatlarning aholiga yanada qulay shaklda taqdim etilishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, transport xizmatlari hajmi ham tahlil qilinayotgan davrda barqaror o'sishni namoyon etgan. Ushbu tarmoq hajmi 2022-yilda 92 277,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 188 270,8 mlrd so'mga yetib, 104 foizga oshgan. Transport xizmatlarining rivojlanishi mamlakatda logistika infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi, xalqaro transport yo'laklarining kengayishi hamda ichki transport xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, avtotransport xizmatlari ham sezilarli o'sish sur'atlariga ega bo'lib, 2022-yildagi 48 058,6 mlrd so'mdan 2025-yilda 95 853,8 mlrd so'mga yetgan va 99,5 foizga oshgan. Bu esa aholining transport xizmatlariga bo'lgan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy sayti, <https://www.stat.uz>

talabining ortishi, logistika xizmatlari rivojlanishi va transport infratuzilmasining yaxshilanishi bilan bog‘liqdir.

Ta‘lim xizmatlari hajmi ham tahlil qilinayotgan davrda sezilarli darajada oshib, 2022-yildagi 20 572,3 mlrd so‘mdan 2025-yilda 39 626,7 mlrd so‘mga yetib, 92,6 foiz o‘shishni tashkil etgan. Ta‘lim xizmatlarining rivojlanishi davlat va xususiy ta‘lim muassasalari sonining ko‘payishi, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining joriy etilishi hamda ta‘lim xizmatlariga bo‘lgan talabning ortishi bilan izohlanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohalari tarkibida savdo xizmatlari ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu soha hajmi 2022-yildagi 103 488,3 mlrd so‘mdan 2025-yilda 186 957,3 mlrd so‘mga yetib, 80,7 foiz o‘shishni tashkil etgan. Bu esa ichki bozorning kengayishi, iste‘mol talabining ortishi hamda savdo infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, boshqa xizmatlar hajmi ham sezilarli darajada oshib, 2022-yildagi 21 364,4 mlrd so‘mdan 2025-yilda 51 150,3 mlrd so‘mga yetib, 139,4 foizga o‘sgan. Ushbu ko‘rsatkich xizmatlar sektorining diversifikatsiyalashuvi va yangi xizmat turlarining paydo bo‘layotganidan dalolat beradi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining barcha tarmoqlarida barqaror o‘shish kuzatilmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliya va transport xizmatlari eng yuqori o‘shish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, raqamli iqtisodiyot rivoji va xizmatlar bozorining kengayishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shunday qilib, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, xizmatlar infratuzilmasini takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, mamlakat iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, ularning innovatsion va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar natijasida xizmat ko‘rsatish sohasining barcha tarmoqlarida barqaror o‘shish kuzatilayotgani aniqlandi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliya, transport va savdo xizmatlari sohalari eng tez rivojlanayotgan tarmoqlar qatoriga kiradi. Bu esa mamlakatda raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar

infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar samarasi ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi aholi bandligini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Innovatsion texnologiyalar va raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining samaradorligini oshirib, ularning raqobatbardoshligini kuchaytirishga imkon bermoqda.

Shu munosabat bilan xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

➤ Xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsion xizmatlarni keng joriy etish, elektron xizmatlar ko‘lamini kengaytirish hamda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur.

➤ Hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

➤ Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

➤ Transport, logistika va savdo xizmatlari infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali xizmatlar bozorining raqobatbardoshligini oshirish zarur.

➤ Xizmatlar sifatini oshirish maqsadida xalqaro standartlar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini rivojlantirish muhimdir.

Xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining turmush sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ushbu sohani innovatsion va iqtisodiy mexanizmlar asosida yanada rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmon. – Toshkent, 2022. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan & T. Cadell, 1776. – 1096 p. <https://www.earlymoderntexts.com/assets/pdfs/smith1776.pdf>
3. Fourastié J. Le Grand Espoir du XXe siècle. – Paris: Presses Universitaires de France, 1949. – 320 p. <https://books.google.com/books?id=GfJYAAAAMAAJ>

4. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books, 1973. – 507 p. <https://archive.org/details/comingofpostindu00bell>
5. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p. <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.188503>
6. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 896 p. <https://hbr.org/product/the-competitive-advantage-of-nations/90224>
7. Vahobov A. V., Jo‘rayev T. T., Xudoyberdiyev Z. Sh. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 512 b.
8. G‘ulomov S. S. Axborotlashgan iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 356 b.
9. Xodiyev B. Y. O‘zbekiston iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 420 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasi statistik ma‘lumotlari. – Toshkent, 2024. <https://stat.uz>